

RAQAMLI IQTISODIYOT MODELLARI, TAHLILI VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Samarqand filiali.

Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrası o'qituvchisi

Umirov Ulug'bek Tayirbayevich

+998996743844 TDIU Samarqand filiali, talabasi

Shokirov Shahzod Shokir o'g'li

shahzodshokirov863@gmail.com +998938477704

Annotatsiya: Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanib borayotgan jamiyatimizda insonlarning yashash sharoitlari kundan kunga osonlashib va yaxshilanib bormoqda. Bu bevosita raqamli iqtisodiyot bilan uzviy bog'liqdir. Bu maqolada raqamli iqtisodiyot modellari, ularning tahlili va takomillashtirish yo'llari, asosiy sabablari va maqsadlari haqida so'z yuritamiz. Asosiy maqsad, biznes, iqtisodiyot sohasidagi xalqaro hodisalar va iqtisodiyotning o'sishini tushunishda raqamli modellar va tahlillarning ro'yxatini ko'rsatib o'tamiz.

Kalit so'zlar: Raqamli iqtisodiyot modellari, gibrid dunyo, raqamli biznes, raqamli transformatsiya, raqamli iqtisodiyot, menejment maktablari.

Ключевые слова: модели цифровой экономики, гибридный мир, цифровой бизнес, цифровая трансформация, цифровая экономика, школы управления.

Keywords: Digital economy models, hybrid world, digital business, digital transformation, digital economy, management schools.

Barchamizga ma'lumki, hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot hayotiy faoliyatimizning ajralmas qismlaridan biri bo'lib kelmoqda. Men qo'rqmasdan ayta olamanki, hozirgi zamonaviy texnologiyalar internet bilan uzluksiz bog'likligini. Tog'risini aytganda hayot sahnasiga yangi avlodlar -internet

tarmog'ida yashaydigan yoshlar kirib kelishi biznesning onlayn (raqamli) bo'lishiga olib keldi. Insoniyat global o'zgarishlar davriga qadam qo'ydi. Yaqin vaqtlarda inson hayot faoliyatining asosiy sohalari- iqtisodiyot va boshqaruv, fan va xavfsizlik bo'lgan bo'lsa, endi yangicha shakl va mazmunga ega bo'la boshladi. Chunki raqamli texnologiya degan tushuncha insonlar hayotiga kirib keldi. Insoniyat o'zgacha bo'lib qoldi, bu esa ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishiga olib kelyabdi. Raqamli texnologiyalarning hayotimizga kirib borishini davom ettirishi – kelajak dunyosiga xos bo'lgan xususiyatlardan biridir. Bu mikroyelektronika, axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyalar sohalaridagi taraqqiyot bilan izohlanadi. Shunday qilib, raqamlashtirish obyektiv, muqarrar jarayon bo'lib, uni to'xtatishning iloji yo'qdir. Oddiy misol qilib mobil telefonni oladigan bo'lsak, bu bugungi kunda ko'plab ma'lumotlarni: telefon raqamlarini, tug'ilgan kun haqidagi ma'lumotlarni, fotosuratlarini, parollarni va boshqa ma'lumotlarni o'zida saqlaydi. Biz hatto telefon bilan jismonan bog'lanmagan bo'lsakda, funksional jihatdan o'zimizni u bilan bir butun deb his qilamiz. Misol uchun, men va mening kursdoshlarim universitetda har doim bizga kerak bolgan ishlar uchun ham, bizga kerak bo'lmagan ishlar uchun ham telefondan foydalanamiz: xoh dars vaqti, xoh bo'sh vaqtimiz bo'lsin. Chunki hozirgi kunda bizning hayotiy faoliyatimizda real va virtual dunyolarning birlashib ketish jarayoni boshlangan va uni to'xtatishning imkoni yo'q deb aytish uchun alohida bir inson chiqib uni jasurlik bilan aytishi shart emas.

Real va virtual dunyolarning birlashuvi natijasida yangi gibriddunyo hosil qilinib, unda biz uchun hozirgi kunda odatiy bo'lgan qonun va qoidalardan farq qiladigan boshqacha qonun-qoidalar amal qiladi. Shu nuqtai nazardan aytish joizki, qolgan iqtisodiyotda alohida ravishda bo'ladigan raqamli iqtisodiyot mavjud emas:

Raqamli iqtisodiyot – raqamli texnologiyalarga asoslangan elektron biznes va elektron tijorat bilan chambarchas bog'liq iqtisodiy faoliyat, hamda shu faoliyat natijasida ishlab chiqarilgan va sotiladigan raqamli tovarlar, xizmatlar yig'indisidir. Ba'zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-

iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi. Bu atama bizga endi kirib kelgani bilan allaqachon biz bundan 10 – 15 yildan beri raqamli iqtisodiyotdan foydalanib kelmoqdamiz. Buni misolini biz qayerlarda ko'rishimiz mumkin: internet do'konlaridan mahsulotlar xarid qilganimizda, yoki turizm katalogidan o'zimiz sayohatga bormoqchi bo'lgan joylarimizni ko'rishimiz va bu sayohatga borishimiz uchun elektron chiptalar olishimiz, qo'shimchasiga u yerga borganda qolishimiz uchun mehmonxonalar band qilishimiz bu raqamli iqtisodiyotdan foydalanishimiz bo'ladi. Biz hozirgi kunda eng ko'p foydalanishimiz plastik kartalarimizdan, boshqa bir plastik kartaga pul o'tkazganimizda. Bu, albatta, bizning ishimizni osonlashtiryapti. Qanday qilib? Misol uchun, oddiy talaba u Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Samarqand filialida o'qiydi, uning ota – onasi Xorazm viloyatida yashaydi. Bolasiga pul bermoqchi bo'lsa, osonlikcha plastik kartasiga tashlab qo'yadi. Raqamli iqtisodiyot bo'lmaganda esa ular pulni transport xarajat, vaqt va boshqa ortiqcha harajatlarni sarflab pulni yetkazishi kerak bo'lar edi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, raqamli iqtisodiyot noldan boshlab qaytadan qurib o'tiladigan tizim hisoblanmaydi. Balki yangi platformalar, axborotkommunikatsiya texnologiyalari, yangi modellarni mavjud iqtisodiyotga integratsiya qilish natijasida yangi raqamli iqtisodiyotni hosil qilishimiz mumkin.

Birinchi marta 1995-yilda amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte “raqamli iqtisodiyot” terminini amaliyotga kiritgan bo'lsa, hozirda bu istilohni butun dunyodagi siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar, arxitektorlar, tadbirkorlar – deyarli barcha qo'llamoqda.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyot bu - gibriddunyo sharoitlarida mavjud bo'lgan iqtisodiyotdir. **Gibriddunyo** bu – real dunyoda virtual dunyo orqali barcha “hayotiy ahamiyatga ega” harakatlarni amalga oshirish imkoniyati bilan ajralib turadigan real va virtual dunyolar birlashuvi natijasidir. Bu jarayon uchun axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) qiymatining pastligi, yuqori samaradorligi va raqamli infratuzilma ochiqligi zarur shartlar hisoblanadi.

Raqamli biznes bu – jismoniy va raqamli dunyolarni birlashtiradigan yangi biznes-modellar paydo bo‘lishidir. School of Management esa raqamli o‘zgarishni “korxonalar qiymati va unumdorligini tubdan oshirish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish” sifatida ta’riflaydi. Ijtimoiy tarmoqlar, smartfonlar bozori, internetga keng polosali ulanish, mashinali o‘qitish texnologiyalari va sun’iy intellektning “portlab” o‘sishi kompaniyalar faoliyat yuritayotgan dunyoni o‘zgartirib yuboradi. Ular yoki yangi bozordagi bo‘sh joylarni egallashlari yoki mavjud bo‘sh o‘rinlarni o‘zgartirgan holda o‘zlarini o‘zgarishlarga moslab olishi lozim bo‘ladi. Tashkilotlarni raqamli o‘zgartirish jarayoni – yangi axborot texnologiyalarining rivojlanishi va butun dunyo bo‘ylab faol tarqalishiga javob hisoblanadi. Raqamli o‘zgartirish turli darajalarga erishib, ular o‘rtasidagi farq ikkita atama – “raqamli transformatsiya” va “raqamlashtirish” o‘rtasidagi farq bilan bir xil ma’noga ega bo‘ladi.

Raqamli transformatsiya bu – axborotni jismoniy vositalardan raqamli vositalarga o‘tkazishdir. Raqamli transformatsiyaga misollar – elektron kitoblar, videokurslar, suratning raqamli nusxasini yaratish va boshqalar. Bunda axborot strukturasi o‘zgarishi ro‘y bermaydi: u faqat elektron shaklga ega bo‘ladi, xolos. Raqamli transformatsiya ko‘pincha mavjud biznes-modelni takomillashtirish va biznes-jarayonlarni optimallashtirish uchun foydalaniladi. Raqamlashtirish esa – raqamli shaklda bo‘lgan butunlay yangi mahsulotlar yaratishdir. Masalan, multiplikatsiyali dinamik o‘quv kursi yoki hujjatni sharhlashning interaktiv tizimi – bu raqamlashtirishdir. Raqamlashtirish asosida yaratilgan mahsulotni uning sifatini jiddiy yo‘qotmasdan turib, texnik vositalarga o‘tkazishning imkoni yo‘q, shu sababli raqamlashtirish, raqamli ko‘rinishga keltirishdan farqli ravishda, biznesga sezirarli darajada keskin rivojlanish va yangi raqobatli ustunliklar qo‘lga kiritishga imkon beradi.

Raqamli iqtisodiyotning tizimining tahliliga keladigan bo‘lsak, bunda ham qulayliklarni va xavf-xatarlarni o‘zida aks ettiradi.

Bu tizimning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

1. Yuqori darajada avtomatlashganlik ;

2. Elektron hujjat almashinuvi;
3. Buxgalter va boshqaruv tizimlarining electron integratsiyalashuvi;
4. Ma'lumotlar elektron bazalari;
5. CRM (mijozlar bilan o'zaro munosabat tizimi) mavjudligi;
6. Korporativ tarmoqlar.

Qulayliklari esa:

- To'lovlar uchun xarajatlar kamayadi (masalan , bankka borish uchun yo'lhaqi va boshqa resurslar tejiladi).
- Tovarlar va xizmatlar haqida ko'proq va tezroq ma'lumotlar olinadi.
- Raqamli dunyodagi tovar va xizmatlarning jahon bozoriga chiqish imkoniyatlari katta.
- Fidbek (iste'molchi fikri)ni tez olish hisobiga tovar va xizmatlar jadal takomillashtiriladi.
- Tezroq , sifatliroq , qulayroq.

Raqamli iqtisodiyotning amaliy ahamiyati va jihatlari , bu birinchi navbatda,insonlarning turmush darajasini sezilarli darajada oshiradi, bu uning asosiy foydasidir. Ya'ni insonlar o'zlarining ishlarini qilishda raqamli iqtisodiyot bilan arzonroq , sifatliroq , qonunchilikka asoslangan va boshqa resurslar bilan uddalay olishadi. Oddiy misol: bir shaxs bankka borib pul o'tgazish uchun , birinchi navbatda o'zlarining qadirligini ko'proq sarflaydi chunki bankka borgandan keyin u yerda navbat kutishlar bo'ladi yoki kun o'rtasida bo'lsa ovqatlangani ketgan bo'lishi mumkin xodimlar, yoki ish vaqti tugab qolgan bo'lishi mumkin agar kunning ikkinchi yarmida borgan bo'lsa. Shu bilan birgalikda shaxslar bankka yetib borguncha ham yo'l xarajatlari sarflaydi yoki turli xil noqulayliklar bo'lishi mumkin. Agar shaxslar my.gov.uz saytidan foydalansalar bularning barchasi ortiqcha kutishlarsiz, noqulayliklarsiz, ortiqcha mablag'larni sarflamaslik, va albatta, qonunchilika asoslangan holda bo'ladi. Agar hammasi raqamli iqtisodiyot bilan uzviy bog'liq bo'lsa jinoyatchilik , soliqdan qochish , korupsiya va boshqa salbiy oqibatlar yuz bermaydi.

Kelajak nuqtai nazaridan raqamli iqtisodiyotni qanday tasavvur qilish mumkin? Fikrimizcha, bu obyektiv jarayon bo‘lib, uni to‘xtatib turishga bizda imkon yo‘q. Ammo har qanday rivojlanayotgan jarayon singari, unda ham ijobiy hamda salbiy tomonlar mavjud. Eng birinchi navbatda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va qo‘l mehnatining texnologiyalar bilan almashtirilishi hisobiga ish o‘rinlari ancha miqdorga kamayadi. Raqamlashtirishga yo‘ldosh bo‘ladigan eng jiddiy havf-xatarlardan biri, o‘rta va past malakali ixtisosliklar orasida ommaviy ishsizlik yuzaga kelishi hisoblanadi. O‘rta sinf vakillarining ishi keskin kamayib ketishi mumkin, chunki birinchi navbatda aynan shu ish o‘rinlari avtomatlashtiriladi va ular intellektual robotlar bilan almashtiriladi. Faol, ma’lumotli, mehnatga layoqatli aholining yetarli darajada yuqori turmush tarziga o‘rganib qolgan sezilarli qismi g‘arb turmush tarzi tufayli yo‘l chetiga chiqib qoladi.

O‘zbekistonda elektron tijoratning rivojlanishini to‘xtatib turgan bir qator muammolar va kamchiliklarni mamlakatimiz fuqarolaridan so‘rovnoma o‘tgazish orqali bilib oldik. Bu so‘rovnoma 25-50 yoshi aholi qatlami orasida o‘tkazildi. Savollar quyidagilardan iborat edi:

1. Siz elektron bitimlarga qay darajada ishonasiz?
2. Yetkazib berish xizmati sizni qoniqtiradimi ? ha yoki yuq bolsa – nima uchun?

3. Tovar va hizmatlar sifati sizni qoniqtiradimi?
4. Firibgarlarga duchor bo‘lgansizmi?
5. Kompyuter savodxonligi darajangiz qanday?

Bizni bu so‘rovnomadan

1. Aholining elektron bitimlar tuzishga unchalik ishonmasligini;
2. Yetkazish berish qiymatining yuqoriligini;
3. Tovar/xizmatlar sifatining pastligini;
4. Firibagrlıklardan qo‘rqishni;
5. Kompyuter savodxonligi darajasining pastligini

Ijobiy tomonlar esa qulaylikning vujudga kelishi, ishlab chiqarish unumdorligining oshishi, oldin hayolga ham kelmagan yangi imkoniyatlarning paydo bo'lishidir. Ammo asosiy muammo bunda ham emas, muammo inson bilan bog'liq – inson ham bunday global o'zgarishlarga tayyormi? Ilg'or texnologiyalar katta siyosiy g'alayonlar, to'qnashuvlar, misli ko'rilmagan tabaqalanishlar, millatchilik, tushunmovchiliklar va inqiloblarga olib kelmaydimi? Robotlar va sun'iy intellekt tizimlari insonlar o'rnini egallab olib, ularning raqobatchilariga aylanmaydimi? Chunki raqamli transformatsiya insoniyat evolyutsiyasining yana bir bosqichidir. Agar tarixga nazar solsak, bunday o'zgarishlar ko'p martalab sodir bo'lgan. Yangi texnologiyalar hosil bo'lib, ular odatiy mutaxassisliklarning o'rnini egallaganlar. Ammo bularning natijasida insonlar ko'pchilik xollarda manfaat ko'rganlar xolos. Moslasha olmaydiganlar uchungina bunday jarayonlar yomon bo'lib chiqqan, albatta. Lekin, ko'pchilik insonlar moslasha oladilar va buning natijasida insoniyat hayoti yanada farovon va yanada yaxshi bo'lib boraveradi.

Taklif va tavsiyalar:

Mahsulotlarni onlayn xarid qilishdagi muammolarga keladigan bo'lsak, deyarli barcha respondentlar to'lov vaqtidagi qiyinchiliklar, tovar/hizmat sifatining pastligi, yetkazib berish vaqti uzoqligi, shuningdek, narx qimmatligini aytib o'tishgan. Shunday qilib, ijtimoiy so'rov natijasida olingan ma'lumotlardan kelib chiqib, O'zbekistonda elektron tijoratning rivojlanishini to'xtatib turgan bir qator muammolar va kamchiliklarni aytib o'tishimiz mumkin:

1. Aholining elektron bitimlar tuzishga unchalik ishonmasligini;
2. Yetkazish berish qiymatining yuqoriligini;
3. Tovar va xizmatlar sifatining pastligini;
4. Firibagiklardan qo'rqishni;
5. Kompyuter savodxonligi darajasining pastligini.

Ammo, shu bilan bir vaqtda aholi o'rtasida o'tkazilgan boshqa ijtimoiy so'rovlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston aholisi elektron bitimlar amalga oshirishga nisbatan tayyor, biroq ularni amalga oshirish vaqtida foydalanuvchi

oʻrtacha isteʼmolchini nari itaradigan va Oʻzbekistonda elektron tijoratning rivojlanishini sekinlashtiradigan bir qator muammolarga duch keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Аюпов Р.Х., Балтабаева Г.Р. Ракамли валюталар бозори: инновациялар ва ривожланиш истикболлари. –Т: “Фан ва технология” nashriyoti, 2018, 172 бет.
2. Гулямов С.С. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. Т.: “Iqtisod Molia” nashriyoti, 2019. 396 bet.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 dekabrda 2019 yil uchun eng muhim ustivor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaʼatnomasi.
4. . Abdullayev, A. M., & Kurpayanidi, K. I. (2020) Analysis of industrial enterprise management systems: essence, methodology and problems. Journal of Critical Reviews, 7 (14), 1254-1260. <https://dx.doi.org/10.17605/OSF.IO/E6JFS>
5. . Digital 2019: global digital overview. Value creation and capture: implications for developing countries. UNCTAD, 2020
6. . Ayupov, R.X., Baltabaeva, G.R. (2018). Raqamli valyutalar bozori: innovatsiyalar va rivojlanish istiqbollari. –Т: Fan va texnologiya. 172 b.